

Karimboeva Charos Ikrom qizi

O'zbekiston, Nukus shahri

Qoraqalpoq davlat universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5873542>

JANUBIY QORAQALPOG'ISTON O'ZBEK SHEVALARIDA KIYIM-KECHAKLARNING TURLARI BILAN BOG'LIQ ATAMALAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek shevalarida, xususan, Janubiy Qoraqalpog'iston hududi aholisi leksikonida uchraydigan kiyim-kechaklar bilan bog'liq atamalar obyekt qilib olingan. Shuningdek, ushbu atamalar bo'yicha tadqiqotlar olib borgan olimlar mulohazalari ham to'planib, tahlil va talqin qilingan.

Kalit so'zlar: Leksika, sheva, o'zbek shevalari, kiyim-kechak leksikasi, atama, terminologiya, dialektologiya.

Turkiyshunoslikda muayyan tilning kasbiy leksikasini o'rganish bo'yicha hozirgacha qator ishlar amalga oshirildi. Sohalar leksikasi va terminologiyasining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga qadimdan mashhur tilshunoslardan N.Dmitriev, N.A.Baskakov, V.Danilenko, N.Mamatov, F.Abdullaev, S.Ibrahimov, R.Doniyorov, X.Doniyarov, A.Ishaev, O.Madrahimov, E.O'razov kabi olimlar munosib hissa qo'shganlar.

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari kasbiy leksikasini o'rganish bo'yicha A.Ishaev, E.O'razov, Z.Do'simov, M.Bo'ranov, Y.Ibragimov, Z.Ibragimova va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini alohida ko'rsatish mumkin. Lekin shuni alohida qayd qilish lozimki, kasbiy leksika juda ko'p sohalarni o'z ichiga oladigan eng boy va qadimiy sohalaridan bo'lib, hali uning barcha sohalari to'la o'rganilgan deb bo'lmaydi. Yuqorida nomi tilga olingan olimlarning ko'pchiligi bu sohaga doir ayrim tadqiqotlari bilangina ko'zga ko'ringan bo'lsa, kasbiy leksikaning ma'lum sohalari bo'yicha maxsus tadqiqotlar olib borgan olimlar ham juda kam. Jumladan, Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari leksikasida uchraydigan kasbiy leksika bo'yicha shug'ullangan tadqiqotchilardan dastlab Ahmad Ishaevni ko'rsatish mumkin. U o'zining «Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari» nomli monografiyasida shevaga xos so'zlar bilan birga chorvachilik, kiyim-kechak, dehqonchilik, hunarmandchilikka oid so'zlarni etimologik jihatdan tahlil qiladi.(4.175-b) Jumladan, *qalta* so'zining cho'ntak ma'nosini anglatishi orqali o'g'ri (kissafur) ya'ni *qaltaman* so'zining kelib chiqqanligini oydinlashtiradi. (O'sha asari, 125-b). Shuningdek, uning «Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalari leksikasidan» nomli 1965-yili e'lon qilgan ilmiy maqolasida eroniy tillarga aloqador kasbiy leksika haqida ham ma'lumotlar beradi.

Kiyim-kechak leksikasi bo'yicha o'zbek adabiy tilida M.Asamaddinova monografik planda keng yoritgan. U o'z asarida kiyim-kechak nomlarini quyidagi

tamoilda tasnif qiladi. (1.5-son). Ular bosh, ust, ayoq kiyimlar kabi guruhlardan iborat. Bu tarzda tasnif qilish boshqa turkiy tillarda va Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida ham shu tarzda tasnif qilinadi. Aslida kiyim tushunchasi leksikografik manbalarda qayd qilinishicha insonning barcha a‘zolari bilan bog‘liq ataladi. Masalan, *bosh kiyim, ust kiyim, ayoq kiyim* kabi. «O‘zbek adabiy tilida *ustibosh, kiyim bosh, kiyim-kechak* kabi sinonimik variantlariga ega. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (1tom 385-b) *kiyim badanni va tana a‘zolarini berkitish, yopish uchun kiyiladigan, har xil mato va teridan tikib tayyorlanadigan narsalarning umumiy nomi*»dir deb izoh beriladi. O‘zbek shevalarida saqlanib qolgan turli-tuman libos nomlarini to‘plash, muzeylarda saqlanayotgan kiyim-kechak nomlarini o‘rganish xalqimizning boy ma‘naviy merosidan kelgusi avlodni bahramand qilishga yordam beradi.

O‘zbek adabiy tili va Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalaridan to‘plangan boy kiyim-kechak nomlarini tahlil qilish natijasida biz ularni quyidagi mavzuviy guruhlarga ajratishni ma‘qul ko‘rdik.

Bosh kiyim nomlari bilan bog‘liq atamalar. Bosh kiyimlar boshga o‘raladigan va kiyiladigan kiyim turlariga ajratiladi: a) boshga kiyiladigan kiyimlarga: *chögirmä//tälpäk, taxya, g‘äli taxya, sherazi, papaq, quloqchin, shapka, kepka, barsetka, shilyapa, tumaq, malaqay* va boshqalar. b) boshga o‘raladigan kiyimlar: *romal//oramal, lächäk, oripäk, bir tartim, käsinkä, pota, sharf* kabi.

Bosh kiyimlar yuqoridagi kabi bajaradigan vazifasi va materialiga ko‘ra shevalarda har xil ataladi. Masalan, Xo‘jayli-Qo‘ng‘irot tumanlarida *chögirmä, malaqay (telpak), norka tumaq, andatir malaqay, silkid chögirmä*; Mang‘it-Beruniy qipchaq sheva vakillari nutqida ham *tumaq, telpäk, chögirmä, shapkä, kepkä* kabi nomlanadi.

Ayol-qizlarning boshiga o‘raladigan bosh kiyimlari ham sheva vakillari nutqida qisman bir-biridan ajralib turadi: Masalan, o‘g‘uz guruh Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalarida «lachak» o‘rash marosimi mavjud. Unda ayol kishi 63 yoshga to‘lganida, oilasi va qarindosh urug‘lari bilan yosh to‘y o‘tkaziladi. Shunda har xil yaxshi tilaklar aytib bosh o‘raladi va har xil mato yoki ro‘mollar yopiladi. Lekin bu udum qipchoq guruh o‘zbek shevalarida uchramaydi.

Bashingizda älvän lächäk,

Belingizda tilla pïchaq kabi xalq qo‘shiqlari bo‘lgan.

Ayol-qizlarning bosh kiyimlari ham materiali tikilish usuli, bezagi, modasi boshqa xususiyatlariga ko‘ra ham turlicha ataladi. Jumladan, *jun romal, yipäk romal, Bäki romal, Yapon romal, sim otgän romal, pux romal, shal romal, gïrbishin mätiromal, sachag‘i beqarar, paxta romal, Andijan romal, pavatinkä romal, qaraqash oramal, zinjir chachaq oramal* va boshqalar.

Demak, bosh kiyimlar ham har bir davga xos tarixiy yoki zamonaviy shakllarda o‘zgarib, eskilari iste‘moldan chiqib boradi. Masalan, *chögirmä, sällä, lächäk, ölgäymän oramal, päränji*, har xil bosh o‘rash usullari kabilar iste‘moldan chiqib bormoqda.

Ularning o'rniga shapka, qalpoq, telpak, fota, sharf, bondomka, pux ro'mal, Yapon ro'mal kabilar yangi-yangi turlari kirib kelmoqda.

Ust kiyim nomlari bilan bog'liq atamalar. Ust kiyim ham har xil xalqning milliy o'zligini urf-odat va an'alarini o'zida mujassamlashtiradi. Ular ham o'z navbatida bajaradigan vazifasi, materiali, tikilish usuli, dizayni kabilarga qarab bir nechta turlarga ajratiladi: er odamlar kiyadigan *postin*, *guppi*, *chapan*, *chäkman*, *palton (palto)*, *makintosh*, *köyläk*, *shim//chalbar*, *kamzor*, *kastun*, *jempir*, *yengsiz (jiletka)* *nimcha* kabi turlardan iborat. Ayol qizlar uchun mo'ljallanganlari ham o'ziga xos usullarda tayyorlanadi. Masalan, *palto*, *köyläk*, *kamzul//kamzor*, *kastyum*, *jepir*, *yengsiz*, *nimcha va Yoponiski jempir* boshqalar. Shuningdek, faqat ayol-qizlar uchun xos bo'lgan *jiyakli lozim*, *xalat*, *kökräk burmä köyläk//kämpir köylak*, *jön köylak*, *jiyakli köyläk*, *baxmal köyläk*, *jügüt shayi köyläk*, *atlas köyläk*, *yiltir köyläk* va hakoza. Yuqorida keltirilgan ust kiyimlar har bir davrga mos bo'lib, ular jamiyat taraqqiyoti, xalqlarimizning turmush tarzining o'zgarishi bilan takomillashib boradi. Masalan, Qoraqalpog'istondagi turkiy xalqlar orasida qadimdan «po'stun» ust kiyimi keng tarqalgan bo'lib, «*sang-sang po'stun*», «*kalta po'stun*» kabi turlari mavjud bo'lgan. Keyinchalik u ixchamlashgan «dublyonka», «kurтка» shaklida zamonaviylashgan.

O'zbek adabiy tilida esa «to'n» deb nomlangan. Masalan, XVI asrda «Boburnoma»da u to'nni tor kiyar edi. «Oyoqlarida *choruq* va eginlarida *chapon erdi*». («Boburnoma» 177-b). O'sha davrlarda choponning har xil turlari bo'lgan. Masalan, mavut chapan, chiybaxmal chapan, sirilgan chapan, paxtali chapan, jun chapan, zarchapan va hakoza.

Ayrim tarixiy manbalarda chopon so'zi o'rnida «*jubba*» so'zi ham uchraydi. Masalan: Jubban sinjob-qizil tulki terisidan tikilgan po'stin.(A.N.) Jubba-ovra-astorli, ichiga paxta solib sirib tikilgan keng va uzun chopon. (O'zb.Ens.N.4-t. 387-b.) Biz o'rganayotgan hududda «paxtali to'n», «guppi» kabi shakllari mavjud.

Demak, *chopon*, *to'n*, *jubba* (arabcha) so'zlari bitta sinonimik qatorni tashkil etadigan ust kiyim bo'lib, ularni biriktiruvchi ma'no paxtalik uzun ust kiyim ekanligidir. Shuningdek, Qoraqalpog'istondagi o'zbek va boshqa turkiy xalqlarda ham «to'n» so'zi bilan bog'liq ust kiyimlar ko'p uchraydi. Hatto, xalqning orasida *to'nniing ko'chasi* (eskisi), *do'stning yangisi* (tozasi) yaxshi (maqol). *Kambag'alni urmay-so'kmay to'nini yirt* (maqol) kabi iboralar saqlanib qolgan.

Shuningdek, H.Sharipov *chopon* so'zining Namangan shevasida guppi aniqlovchisi bilan birga ishlatilishini aytadi.(4.64-bet.) Masalan: Guppi choponni kiyvoldim, belimni boylavoldim. Bu yerda u *guppi chopon* atamasini paxtali chopon ma'nosida qo'llaydi. Biz o'rganayotgan obyektlarda, jumladan, Mang'it shevasida guppi alohida qo'llaniladi. Ya'ni ichiga paxta solib tikiladigan kalta ust kiyim. U rus tilida *fufayka* deb nomlanadi. U paxtali va tugmali kalta to'n deb izohlanadi. (Ruscha-o'zbekcha lug'at 1.t. 379-b.) Guppi atamasi boshqa turkiy tillarda ham shu tarzda izohlanadi. Masalan,

qoraqalpoqcha guppi paxta, tuya yoki echki yungi solib tikilgan issiq ust kiyim deb izoh beriladi. (Qoraqalpoqcha-ruscha lugʻat, 146-b).

Oʻzbek tilining Qilichboy shevasida ust kiyimlar guruhiga mansub erkaklar ust kiyimlari: chäkman, postun, paltun (palto) kabilar; xotin-qizlar kiyadigan miysäk, jaket, jeletka kabilar ham keng tarqalgan. Bulardan eng qadimiysi va xarakterlisi chäkman va miysäkdir. Chäkman tuya junidan toʻqilgan matodan tikiladigan astarsiz erkaklar ust kiyimidir.

Miysäk (oʻzbekcha mursak) – paxtasiz ust kiyim boʻlib, shevada *yengli va yengsiz miysäk* kabi turlari uchraydi.

Biz oʻrganayotgan oʻzbek shevalarida kämzor atamasi ham keng qoʻllaniladi. Izohli lugʻatda palto oʻrinida kiyiladigan yengil ust kiyim deb berilgan. Kämzor//kämzul atamasi jiletka oʻxshash yengsiz, kalta xotin-qizlar ust kiyim deb ham izohlanadi.

Xullas, ust kiyimlar er va ayollar orasida qadimdan keng isteʼmolda boʻlib kelmoqda. Bularning koʻpchiligi eskirgan, ayrimlari eski ittifoq davrda oʻzlashgan, baʼzilari hozir ham shu sohada qoʻllanib kelmoqda.

Oyoq kiyimlar turlari bilan bogʻliq atamalar Qadimdan turkiy xalqlar oyoq kiyimlarga alohida eʼtibor berib keladi. Masalan, dastlab ommaviy shaklda *mähsi, kävish, chöqay, chariq, etik, dägi, kiygiz etik, chärim etik, tälätin etik* kabilar keng isteʼmolda boʻlgan keyinchalik fan-texnika va jamiyatning taraqqiyoti natijasida poyafzal ishlab chiqarish rivojlandi. Natijada mayda hunarmandlar bilan birga poyafzal ishlab chiqaruvchi yirik fabrikalar paydo boʻla boshladi. Ular bu sohada yangi texnologiyalarni joriy etish evaziga oyoq kiyimlarning turlari nihoyatda koʻpaydi. Ilgari *choʻqay-tälätin* (charm) dan tikilgan poshnasiz oyoq kiyim oʻrnida zamonaviy xilma-xil *botinkalar* kirib kela boshladi. Bulardan tashqari *tufli, chuväk, tanketka, tapichka, qönchli botinka, yarim etik (polsapoga)* kabi turli shakllari keng ishlab chiqarildi. Shuningdek, *chariq* - esa ishlanmagan teridan tayyorlanadigan oddiy *poshnasiz oyoq kiyim*, u hozir umuman isteʼmoldan chiqib ketdi. Baʼzi yozma yodgorliklarda *choriq* ishlanmagan qattiq teridan tikilgan, asosan, choʻponlar, togʻli xalqlar orasida rasm boʻlgan oddiy oyoq kiyim deb izohlanadi. Masalan: *Men choʻpon otaning oʻgʻli edim. Menga novvos terisidan choriq tikib berdi.* (OʻZKL., 2-t., 379-b.) Shuning uchun xalqlar orasida *choʻpon-choʻrgʻingni yigʻ. Hali ham choʻrigʻingni suyrab yuribsanmi?* degan iboralar uchraydi. Shuningdek, XVI asr yozma yodgorligi hisoblangan «Boburnoma»da ham *chörük* (177-b) soʻzi qoʻllanilgan.

Choʻqay-choʻriq soʻzlari boshqa turkiy xalqlardan ham keng qoʻllanilgan. Masalan: turkman tilida choʻqay-tuya yoki sigir terisidan tikilgan oyoq kiyim. Charıqchı//choʻriqchı oyoq kiyim tikuvchi usta deb izohlanadi. (Turkman tilining izohli lugʻati.(740-751-b). Qoraqalpoq tilida *shoqay* oyoq kiyimning bir turi deb berilgan. (KK R.s. 733-b.)

Demak, oyoq kiyimning eng qadimiy arxaiklashgan bir turi boʻlib, u hozir turli fonetik oʻzgarishlarga uchragan holda koʻpchilik turkiy tillarda uchraydi.

Mässi (maxsi)-uzun qo'ncfli, poshnasiz tag charmi yumshoq, kavush bilan kiyiladigan milliy oyoq kiyimning bir turi. Uning *chärim mässi*, *xurim mässi*, *ämirkani mässi* kabi turlari bor. Hozir ham bu oyoq kiyim keksa, ba'zi yosh ota-onalarimiz kiyib yuradigan, issiq oyoq kiyimlardan biri sanaladi.

Kävush (galoshi) so'zining shevadagi varianti hisoblanadi (*mässi* ustidan kiyiladigan rezina poyafzal hisoblanadi).

Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari nutqida uchraydigan oyoq kiyimlar *chüväk*//sandal ham ko'p ishlatiladi. M.Qoshg'ariyning ma'lumotiga ko'ra *sandal* so'zi qadimgi turkiy qavimlardan chichillar nutqida ham *samda* shaklida qo'llanilgan.(2.375-bet). Hozir bu atama *sandal* shaklida To'rtkul, Xo'jayli sheva vakillari nutqida saqlanib qolgan.

Xalqimizning turmush tarzining o'zgarishi, innavatsion texnologiyalarning kirib kelishi, fan-texnikaning rivojlanishi natijasida oyoq kiyimlarning shakli va turlari o'zgardi. Eskilari zamonaviy yangi modalar bilan tikilganlari bilan almashdi. Natijada ayollar oyoq kiyimlarining baland va past poshnali turlari paydo bo'ldi. Ularni tayyorlash texnologiyalari bilan bog'liq chevarchilik leksikasi keng rivojlandi. Hatto, chet ellardan o'zlashgan yangi-yangi atamalar bilan boyib bormoqda. Bu albatta, xalqimizning boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniya aloqalarining natijasidir. Ayniqsa, istiqldan keyingi davrda yuz berayotgan o'zgarishlar, hamkorliklar tufayli bu soha yana ham ravnaq topmoqda. har tomonlama qo'llab-quvvatlandi.

Hozir yo'q bo'lib ketayotgan charm mahsulotlaridan tayyorlanadigan oyoq va bosh kiyimlarni qayta tiklash va kelgusi avlodlarimizga meros sifatida saqlab qolishga alohida ko'ngil ag'darilmoqda. Masalan, ilgari chevar tikuvchilarimiz *chalbar*(*shim*) yoki *ishtonlarga auv* solib tikkanlar. Hozir ularga äuv(en) solinmaganligi uchun tez yirtilib ketadi.

Qishtëk - eski tikuvchi chevarlar kiyimning yengini, chap yoki o'ng tomonlarini birlashtiradigan qism, mato parchasi, demak kiyim *kishtëksiz* bo'lsa qo'ltig'ing so'tilaveradi (Mangit).

Omiz - har qanday kiyimdagi yengning qo'ltiq osti qismi. Masalan, *Qayrilmä*, *köyläkning omizi yirtiladi* (Oqqat qishlog'i. Mangit).

Shuningdek, har qanday kiyim qismlarini birlashtiruvchi sädäp//tugmä o'rnida *jabaqau* (bog'ich) qo'llanilgan (Xo'jayli). Ular ipdan chiroyli qilib ishlangan ko'ylak yoqasini yoki egnini birlashtirib turuvchi tugma vazifasini bajargan. Bu asosan yosh bolalar yoki keksa chollar ko'ylaklariga taqiladigan bo'lib hozir yo'qolib ketgan. Ko'ylak yoqalari ilgari yon tomondan ochilgan bo'lib, ularga tugma taqilmasdan bog'ich (*jabaqau*)lar taqilgan. Hatto, ko'ylakning bo'yin qismi, yoki o'ng elkadan, «yoqa ochmoq», «keng yoqa», «tor yoqa» kabi usullari bo'lgan.

Xullas, kiyim-kechak leksikasini o'zbek shevalari misolida keng o'rganish o'zbek tili tarixi va dialektogiyasi uchun qimmatli ma'lumotlar berishi tabiiydir. Hozirgacha



mavjud tadqiqotlarni analiz qilishimiz natijasida shuni ko'ramizki, Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarining professional leksikasi o'z yechimini to'la topmasdan e'tibordan chetda qolib kelayotgan sohalardan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asamaddinova M. Kiyim-kechak leksikasi. O'TA., 1963, 5-son.
2. Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'atit turk. 1 tom, -T., 1960.
3. Ishaev A. Qoraqalpog'iston o'zbek shevalari. Monografiya. «Fan» -T., 1977.
4. Sharipov X. «Chopon» so'zining etimologiyasi «O'zbek tili va adabiyoti» 1980, 3-son.